



TOMOQ SOMATIZMI ISHTIROK ETGAN MAQOLLARNING LEKSIK - SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Sobirova Muxlisa Shamsiddin qizi
Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti,
E-mail: muxlisasobirova24@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tomoq somatizmi ishtirok etgan maqollarga xos leksik-semantik xususiyatlar tahlil qilingan, maqollarning o'z va ko'chma ma'nolari izohlangan.

Kalit so'zlar: maqol, somatizm, peshona, leksik ma'no, semantik ma'no, ko'chma ma'no.

Maqol –xalq donishmandligining ko'zgusi. Unda har bir xalqning, millatning tarixi, buguni va kelajagi yotadi. Turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyati o'z aksini topadi. Shu sababli maqollar ko'plab soha olimlarining – tilshunoslar, adabiyotshunoslar, etnograflar, jamiyatshunoslarning diqqatini tortib kelayotgan mavzulardan biridir.

O'zbek xalq maqollari – bebaho gavharlar yashiringan xazina. Ularni o'rganar ekanmiz, tilimiz imkoniyatlarining turli jilvalariga guvoh bo'lamiz.

Tilimizda tana a'zolari nomi ishtirok etgan maqollar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Chunki har bir xalq vakili o'z fikrini obrazli yoki his-hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida barqaror birikmalar yaratar ekan, o'ziga yaqin yoki tanish bo'lgan narsa-hodisalar nomlaridan foydalanishga harakat qiladi.

Bu o'rinda *tomoq* komponentli paremik birliklarning leksik-semantik xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

O'zbek xalq maqollarida *tomoq* somatizmli paremik birliklar 41 tani tashkil qiladi.

*Tomoq 1.*Bo'yinning engak osti(tumshuq osti) qismi.

Kanizak ko'k ro'molini tomog'ining tagidan bog'lab olgan, yerga qarab jadallab kelar edi.[1:144]

Ushbu semaga ega bo'lgan holatda tomoq so'zi paremik birliklarda uchramaydi.

Tomoq 2. Qizilo'ngach bilan kekirdak boshlanadigan yer; bo'g'iz, halqum.[1:144]

Sabrsizlik:

Bor-yo'g'ini bilmaydi, bol tilaydi tomog'im.

Halol mehnat bilan non topish:

Mehnat tovoq to'ldirar, minnat tomoq kuydirar.

Oltin-kumush tosh bo'lar, tomoqdan o'tsa osh bo'lar.

Oyog'ing tolmaguncha tomog'ing to'ymas.

Tomog'ining yo'li toza – ishi bo'lar pokiza.

Ehtiyotkorlik:



Tomog'ingga qiltanoq ketsa, ayronni ham puflab ichasan.

Qanoatlilik:

Tomoqdan o'tganning bari tomoq.

Birovning haqini yemaslik, halollik, tekinxo'rlikni qoralash:

Xalq molini yegan tomog'idan ilinar.

O'g'ri bilan sherik bo'lsang, tomog'ing to'yar,

Mulla bilan sherik bo'lsang gunohing jo'yar.

Tomoq 3. Taom, ovqat, ovqatlanish.[1:144]

Qarini tomoq asraydi.

Tomoq turgan yerda dard turmas.

Tomoqqa yamoq.

Totli tomoq tamuqqa tushirar.

Tomoq ko'rmay o'lgandan tomoq ko'rib yeyolmay o'lgan yomon.

Tomoq yesang to'yguncha, o'g'rilik qilsang o'lguncha.

Bolani bozor tomoqqa o'rgatma.

Dardning sababi – tomoq, qarab yemagan ahmoq.

Qutli qo'noqqa – totli tomoq.

Oz tomog'im – tinch qulog'im.

Tekin tomoq totli kelsa-da, tish sindiradi.

Tekin tomoq tanni toza qiladi.

Tekin tomoq ichagingni teshadi.

Tekin tomoqning tikanagi tiqiladi.

Tekin tomoq tish sindirar.

Tekin tomoq totlik kelar.

Tekin tomoqning ta'mi boshqa, yeganlarning boshi qashqa.

Tekin tomoqning tikanagi tiqilar.

Tekindan tomoq bo'lsa, qirq kun yotmoq kerak.

Tekin tomoq odamning tuzog'i,

Yedirib aytadi: Ammamning buzog'i.

Tekin tomoq – biqin teshar.

Totli tomoq tamuqqa tushirar.

Yuqoridagi paremik birliklardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, tomoq somatizmi ishtirok etgan maqollarning aksariyatida halollik, mehnatkashlik ulug'lanadi, tekinxo'rlik va birovning molidan hazar qilish uqtiriladi. Ushbu mazmundagi maqollarning tilimizda ko'p uchrashi bir tomondan, xalqimizning mentaliteti,



dunyoqarashi bilan bog‘liq bo‘lsa, bir tomondan, diniy va islomiy dunyoqarash natijasi hamdir.

Muqaddas dinimiz islomda halollik va halol rizq bilan kun kechirish har bir insonning odamiylik belgisi, insoniy burchi sifatida talqin qilinadi. Jumladan, Qur’oni Karimning Niso surasida Alloh Taolo aytadi: “Ey iymon keltirganlar, mol-mulklaringizni o‘rtada nohaq yo‘l bilan yemangiz!”. Shuningdek, payg‘ambarimiz Muhammad(s.a.v) ham shunday deydilar: “Kim qayerdan mol topayotganiga e’tibor bermasa, Alloh ham uni do‘zaxning qaysi eshigidan kirishiga e’tibor bermaydi.” *Totli tomoq tamuqqa tushirar* maqolida esa yuqoridagi hadis yanayam soddaroq va tushunarliroq tarzda singib ketgan.

O‘tmishda ajdodlarimiz ham birovning haqidan qattiq hazar qilishgan, o‘zganing haqini olish u yoqda tursin, o‘zlari bilmagan holda tasodifan kelib qolsa ham, undan zudlik bilan qutulishgan. Sababi, haromda shayton bor deb qaralgan. Harom luqma bilan voyaga yetkazilgan bolaning taniga ham shaytoniy tabiat, yomon va yaramas xulqlar kirib, singib qoladi degan qarash bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, somatizm komponentli maqollarda xalqning hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqealar, urf-odatlar, ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarash va diniy tasavvurlar o‘z aksini topgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э. ва бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006. – 680 б.
2. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Т., 1990. – 528 б.
3. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б.